

7–8-SINF O‘QUVCHILARIDAGI PSIXOLOGIK O‘ZGARISHLAR

Fozilova Nozima Husniddin qizi
Orziqulova Dilnura Dilshod qizi
Jumayeva Azizaxon Faxriddin qizi
O'zbekiston Milliy universiteti
Jizzax filiali amaliy psixologiya
yo‘nalishi 4-bosqich talabalari

Annotatsiya:

Ushbu maqolada 7–8-sinf o‘quvchilarida kuzatiladigan psixologik o‘zgarishlar tahlil qilinadi. O‘smirlik davriga xos bo‘lgan emotsional beqarorlik, mustaqillikka intilish, o‘z “men”ini anglash jarayoni hamda ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi yoritib beriladi. Shuningdek, bu davrda o‘quvchilarda yuzaga keladigan muammolar va ularning oldini olishda o‘qituvchi, ota-ona hamda psixologning o‘rni muhim ekani asoslab beriladi. Maqolada o‘smirlarning psixologik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga oid tavsiyalar ham keltiriladi. O‘smirlik davridagi yoshlarning psixologik holatlari, ularning ruhiy o‘zgarishlari, atrofida gilari va ta’lim olishga munosabati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘smirlik davri, psixologik o‘zgarishlar, 7–8-sinf o‘quvchilari, emotsional rivojlanish, ijtimoiy munosabatlar, mustaqillikka intilish, o‘zini anglash, xulq-atvor, motivatsiya, shaxs rivojlanishi.

PSYCHOLOGICAL CHANGES IN 7TH–8TH GRADE STUDENTS

Abstract

This article analyzes the psychological changes observed in students of the 7th–8th grades. It highlights characteristics typical of adolescence, such as emotional instability, the desire for independence, the process of self-awareness, and the formation of social relationships. Additionally, the article explains the problems that arise during this period and emphasizes the important role of teachers, parents, and psychologists in preventing

these issues. Recommendations for supporting the psychological development of adolescents are also provided. The psychological states of adolescents, their mental changes, their attitudes toward their surroundings, and their approach to education are discussed.

Keywords: Adolescence, psychological changes, 7th–8th grade students, emotional development, social relationships, striving for independence, self-awareness, behavior, motivation, personality development.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ 7–8 КЛАССОВ

Аннотация

В данной статье анализируются психологические изменения, наблюдаемые у учащихся 7–8 классов. Освещаются характерные для подросткового возраста особенности, такие как эмоциональная неустойчивость, стремление к самостоятельности, процесс осознания собственного «Я», а также формирование социальных отношений. Кроме того, рассматриваются проблемы, возникающие в этот период, и обосновывается важная роль учителей, родителей и психологов в их предотвращении. В статье также приведены рекомендации по поддержке психологического развития подростков. Подробно рассматриваются психологическое состояние подростков, их внутренние изменения, отношение к окружающим и к процессу обучения.

Ключевые слова: Подростковый возраст, психологические изменения, учащиеся 7–8 классов, эмоциональное развитие, социальные отношения, стремление к самостоятельности, самосознание, поведение, мотивация, развитие личности.

Hozirgi zamon ta'lim tizimida o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, 7–8-sinf o'quvchilari hayotida kuzatiladigan psixologik o'zgarishlar alohida e'tiborni talab qiladi. Ushbu davr o'smirlikning boshlang'ich bosqichi bo'lib, unda shaxsning shakllanishi, o'zini anglash,

mustaqillikka intilish va atrof-muhitga bo'lgan munosabatning tubdan o'zgarishi kuzatiladi. Mazkur yosh bosqichida o'quvchilarda nafaqat jismoniy, balki psixologik rivojlanish ham jadal kechadi. Ularning hissiy holati beqarorlashadi, fikrlash doirasi kengayadi hamda o'z "men"ini anglash jarayoni faollashadi. Shu bilan birga, tengdoshlar bilan munosabatlar, jamoadagi o'rni va ijtimoiy muhitga moslashish muhim omilga aylanadi.

7-8-sinf o'quvchilari 14-15 yosh darajasida bo'lganligi sababli ular "Ilk o'smirlik" yosh davrida sodir bo'ladigan psixologik o'zgarishlarni o'z xulq-atvor va xarakterlarida namoyon qilishadi¹. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, bu yosh davri bola hayotida "O'tish bosqichi" bo'lib, bolalikdan kattalikka o'tish jarayoni boshlanganidan dalolat beradi. Ushbu yosh davridagi bolalar boshqa yosh davridagi bolalardan ko'zlagan maqsadiga erishish uchun intilish, uddaburonlik va tirishqoqlik singari qator xususiyatlari bilan ajralib turadilar va ular asosiy vaqtini oilasi bilan emas, do'stlari qurshovida o'tkazganligi sababli do'stlar davrasi ularning mustaqil harakat qiladigan va erkin fikrlaydigan olamiga aylanadi. Natijada, do'stlarining fikri ota-onasidan ko'ra muhimroq bo'lib qolish holatlari ham namoyon bo'ladi. Dastavval, bu yoshdagi bolalarning psixologik o'zgarishlarida bilish jarayonlarining o'sishi, o'qish faoliyatining takomillashishi natijasida o'zlarini qiziqtiruvchi ma'lum bir fanga nisbatan qiziqishning kuchayishi yoki ular uchun yangilik bo'lgan ma'lum bir fanlarni qabul qila olmaslik holatlari, buning natijasida esa faollik darajasining susayishi hamda o'qituvchi bilan bog'liq ayrim tushunmovchiliklarning kelib chiqish holatlari kuzatiladi. Odatda, o'smirlik bosqichidagi o'g'il va qizlarda ilk "Kattalik" hissi yuzaga keladi. "Kattalik hissi" o'smirning o'zini asta-sekin katta odam deb his qila boshlashi, lekin ko'p odat va xususiyatlari bolalarcha bo'lib qolaverishidir. Bu yoshdagi bolalar o'zlarining munosabat uslublarini va axloq mazmunini ham keskin o'zgartiradi. Kattalarning tashqi qiyofasi, yurish-turishi, ko'zga tashlanadigan ayrim tomonlari o'smirlarda

¹G'oziyev E.G'.. Mamedov K.K.."Kasb psixologiyasi". Toshkent 2003.

shu davrga tezroq yetish istagini uygʻotadi. Jumladan, qizlar orasida modaga qiziqish, oʻziga oro berish, mulozamat qilishga intilish, madaniy hordiq chiqarish kabi holatlarga qiziqish bildirishganining guvohi boʻlishimiz mumkin.

Ular koʻpincha talablarga, katta yoshdagi kishilarga, oʻzlari sevib tomosha qiladigan, televizor va kinolarda koʻrgan turli xil hayotiy va fantastik qahramonlarga taqlid qilishadi. Oʻz tasavvurida nimani ommabop deb hisoblasa, xuddi shu narsani namuna tarzida qabul qiladilar. Ulardagi oʻz-oʻzini va oʻzgalarni baholash mezoni ana shu tariqa yuzaga keladi. Shuning uchun ularda avval kuzatilmagan orzu-umidlar, yangi his-tuygʻular koʻzga tashlanadi. Oʻquv faoliyatidagi kamchiliklar kichik sinfligida sezilmagan boʻlsa, endi yuqori sinfga oʻtgach oʻzlashtirishi keskin pasaygan bolalar koʻzga tashlanib qoladi. Endi ular oʻzlashtirilishi birmuncha murakkab boʻlgan maʼlumotlarni yoki topshiriqlarni bajarishi uchun ham nazariy, ham formal, ham refleksiv jihatdan oʻz tafakkuri, xotira va idrok jarayonlarini avvalgi holatiga nisbatan rivojlantirishga ehtiyoji kuchayadi. Yaʼni u oʻquv materiallarini tushunib, idrok qilish va eslab qolish uchun oʻz ustida koʻproq ishlay boshlaydi. Psixolog R. Alimaskinning taʼkidlashicha, oʻsmir yoshdagi oʻquvchilarda oʻzini oʻzi nazorat qilishning kuchayishi yoki susayishi, shaxsda yorqin emotsional sohadagi muammolarning kelib chiqishiga sabab boʻladi. Emotsional reaksiyalarning jadal taraqqiyoti oʻzini oʻzi nazorat qilishning kuchsizligi bilan kechadi. Emotsional holatlarda ixtisoslashgan maktab oʻquvchilarining oʻzini oʻzi nazorat qila olmasligi keyinchalik, xulq-atvordagi ayrim ogʻishlarni kelib chiqishiga sabab boʻladi. Shu oʻrinda, oʻsmirlarning oʻquv faoliyatida oʻquv materialini oʻzlashtirish darajasida, umumiy intellektual rivojlanishida oʻzlashtirish qobiliyati turli darajadagi oʻquvchilarni uchratish mumkin. Masalan, ular orasida tarbiyasi qiyin yoki oʻzlashtirishi sust oʻquvchilar toifasi mavjud.

Odatda, tarbiyasi qiyin oʻsmirlarni yuzaga keltiruvchi bir nechta sabablar mavjud boʻladi. Ular quyidagilar:

- shaxsning biologik kamchiliklari yaʼni jismoniy jihatdan mavjud boʻlgan nuqsonlari;
- psixik rivojlanishdagi kamchiliklar;

- shaxs tarbiyasidagi nuqsonlar;
- bilish faoliyatidagi kamchiliklar;
- maktab ta'limi va tarbiyasidagi kamchiliklar;
- maktabdan tashqari muhitdagi kamchiliklar.

Bunday ta'lim olishi yoki tarbiyasi bilan bog'liq kamchiliklarni namoyon qiluvchi o'quvchilar o'qituvchining kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda o'qitilishi lozim. Ushbu holatda o'qituvchidan, birinchi navbatda, yuqoridagi toifaga mansub bolalar bilan sog'lom muloqotni shakllantirish va yangicha yondashuv, qiziqarli metodikalarga boy dars jarayonini tashkillashtirish talab etiladi. Bu talabni bajarish uchun esa o'qituvchi o'quvchisining xarakteri bilan yaqindan tanish bo'lishi lozim. K. Leongard tomonidan fanga kiritilgan xarakter aksentuatsiyasi tushunchasi xarakter ba'zi sifatlarining yorqin ifodalanganligining ifodasi bo'lib, o'smirlar bilan individual shug'ullanish, ma'lum fanga qiziqtirish, kasbga yo'naltirish kabilarni o'z ichiga oladi va o'z-o'zini baholash, shaxsning o'zini boshqalar bilan taqqoslash jihatlariga ega ekanligi bilan o'qituvchining o'quvchi bilan shug'ullanishida yordamchi tushuncha sifatida namoyon bo'ladi².

Maktab o'quvchilari o'quv faoliyatida yuzaga keluvchi emotsional zo'riqishlarni oldini olishning, psixologik chora tadbirlari sifatida quyidagilarni amalga oshirib borish, maqsadga muvofiq sanaladi:

maktab o'quvchilarining kognitiv imkoniyatlarinigina emas balki, axloqiy, ijodiy, jismoniy imkoniyatlarini hisobga olish va rivojlantirish;

faol sinf rahbarlarini tanlab olish, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash, sinf kengashi ishini tashkil etish;

- sinfda qulay psixologik muhitni yaratishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish;

-ta'lim sohasida maktablar, oilalar, bolalar tashkilotlari va boshqa ijtimoiy sheriklarning o'zaro hamkorligi mexanizmlarini ishlab chiqish;

-ta'lim muhitida salbiy hodisalarning oldini olish uchun, idoralararo o'zaro hamkorlikning yangi shakllarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

-shaxsning liderlik, tashkilotchilik, muvaffaqiyatlilik, optimizm, innovatsion fikrlash qobiliyati, shaxslararo munosabatlarga bo'lgan qobiliyati, o'zi-o'ziga ishonch hissi, o'zini o'zi sub'ektiv nazorat qila olish kabi shaxslilik xususiyatlarini shaklantiruvchi turli psixologik o'yinlar va treninglarni tashkil etib borish;

²Abduraxmonov F.R., Abduraxmonova Z.E. "Kasb psixologiyasi". Toshkent 2018.

-emotsional sohasida muammo kuzatilayotgan, yolg'izlikka moyil, tortinchoq, uyatchan o'quvchilar bilan alohida suhbatlar va psixologik maslahatlar tashkil etish va hokazo.

Agarda, yuqorida e'tiborga olingan va maktab o'quvchilarining emotsional sohasida zo'riqishlarga sabab bo'luvchi omillarning tadqiqiga oid, kengroq psixologik tadqiqotlar olib borilsa va ularning oldini olish bo'yicha taklif hamda xulosalar ishlab chiqilsa, iqtidorli o'quvchilarning o'quv faoliyatida yuzaga kelayotgan turli muammolarning oldini olish ehtimoldan holi emas. Psixologlar va o'qituvchilar, o'quvchilarning potensialini egallash uchun birinchi bo'lib, ularga o'zlarini o'rganish, o'zaro hamkorlik qilish va ma'naviy rivojlanishni ta'minlash imkonini beradigan usullarni qo'llab-quvvatlaydigan qo'llanmalarni amalga oshirishadi. Umuman olganda, maktab o'quvchilari psixologiyasi, o'quvchilarning o'zgaruvchan va raqamli dunyoda psixologik boyliklarga qanday munosabat qilish kerakligini o'rganishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har bir kishining shaxsi uning individualligini vujudga keltiradigan xislatlar va fazilatlarning faqat unga xos birikuvidan tarkib topgandir. Shuningdek, har bir shaxsda o'ziga xos tarzda dunyoni, odamlarni idrok qilish va tushunish qobiliyati borki, ular muloqot jarayonida kamroq xatolarga yo'l qo'yishni ta'minlaydi. Shaxsning barcha psixik ko'rinishlari esa uning hayoti davomida shakllanib boradi. Insonning individual-psixologik xususiyatlari deyilganda qobiliyatlar, temperament,

xarakter, emotsiyalar, motivatsion doiralar tushuniladi. Bu psixologik xususiyatlar ajralmas tarzda mavjud bo'lib o'zaro bog'liq, shartlangan, inson faoliyatida bir-biriga birikib ketadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E. G'oziyev. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.
2. E. G'oziyev. Yosh davrlar psixologiyasi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2005.
3. B. Qodirov. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2010.
4. Xo'jayeva Xolida Safoboyevna. Maktab o'quvchilarining psixologik xususiyatlarini o'rganish. Ilmiy maqola. 2024.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun psixologiya fanidan metodik qo'llanma. – Toshkent, 2020.
6. G'oziyev E.G'.. Mamedov K.K.. "Kasb psixologiyasi". Toshkent 2003.
7. Abduraxmonov F.R., Abduraxmonova Z.E. "Kasb psixologiyasi". Toshkent 2018.